

**O‘ZBEK AN‘ANAVIY QO‘SHIQCHILIGINING QADIMIY TARIXIY ASOSLARI**

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat 12-2 vokal 20 guruh talabasi

**Rayxonov San‘at Rajabboy o‘g‘li**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbek an‘anaviy qo‘shiqchiligining qadimiy tarixiy asoslari hamda o‘zbek an‘anaviy qo‘shiqchiligiga hissa qo‘shgan olimlar haqida batafsil bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** an‘anaviy qo‘shiqchilik san‘ati, Shashmaqom, marsiya, an‘anaviylik, kompozitorlik

O‘zbek xalqi ko‘p asrlik taraqqiyot tarixiga ega bo‘lgan an‘analar sohibidir. O‘zbek musiqa san‘atining ildizlari qadim zamonlarga borib taqaladi. Qadimiy madaniyatning ko‘pdan-ko‘p obidalari, buyuk o‘zbek mutafakkirlari, shoir-yozuvchilari, ulug‘ daholari Al-Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Navoiy, Jomiy, Nizomiylar lirikasida, keyinchalik esa o‘zbek shoirlari va mutafakkirlari Muqimiy, Furqat, Hamza asarlarida musiqa tarbiyasi va ta‘lim berish borasida talaygina qiziqarli fikrlar bildirilgan. O‘zbek qo‘shiqchiligining rivojlanishiga barcha davrlarda ham nihoyatda katta ahamiyat berilgan. O‘rta osiyolik mashhur qo‘shiqchilar orasidagi olimlar yoshlarning tarbiya sifatlariga ko‘plab ilmiy va amaliy g‘oyalar bildirganlar. O‘zbek xalqining qo‘shiqchilik san‘ati xalq professional ijod mahsuli bo‘lgan musiqa asari, og‘izdan-og‘izga o‘tishi asosida asrlar davomida to‘plangan an‘ana zamirida rivojlangan. U bizga hofizlar, musiqachilar, baxshilar orqali yetib kelgan. Unga xalq ijodining eng yaxshi na‘munalari hamda professional ijrochilar tomonidan chalingan musiqa asarlari kirgan. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarning natijalari XVIII asrda o‘ziga xos nota yozuvi bo‘lganligi, faqat musiqa folklori emas, balki o‘zbek xalqining professional qo‘shiqchiligi ham 1920 yillarga qadar og‘izdan-og‘izga o‘tish yo‘li bilan tarqalib kelganligining isboti topilgan. Sobiq sho‘rolar davrida nafaqat xalq qo‘shiqchiligi, balki o‘zbek musiqa san‘ati ham nisbatan tazyiqlarga ro‘baro bo‘ldi. Shunga qaramasdan, musiqa o‘zbek xalqi hayotida muhim va kata o‘rin egallab, keyinchalik hatto rivoj topib bordi. O‘zbek xalqining musiqa san‘ati uzoq tarixga ega bo‘lib, davrlar osha o‘zining tarbiyaviy sifatlarini yo‘qotmay xalqimiz orasida ommalashib bormoqda. O‘zbek qo‘shiqchiligining yosh avlod tarbiyasidagi muhim yo‘nalishlari uning qadimiyligi va barqarorligi, pand-nasihatga boy ko‘rinishi, ajdodlarimiz qoldirgan qadimiy hamda ma‘naviy merosimizga yo‘g‘rilganligidadir. O‘zbek musiqa madaniyati va san‘ati o‘z sayqalini yo‘qotmay, o‘zaro bog‘lanib, birbirini to‘ldirib, tinglovchining qalbida yashab kelmoqda. Qadimda qo‘shiqchilik madaniyati, ayniqsa, salovniylar, Yunon-Baqtriya, qadimgi Farg‘ona, Kang, Kushon kabi dastlabki quldorchilik davlatlarida tez rivojlanishi ushbu san‘at turi ajdodlarimizning qadimgi tasavvurlari, eng avvalo, tabiat kuchlariga qarshi kurashish, o‘zini ibtidoiy usullar bilan himoya qilish vositasi sifatida shakllana boshlagan bo‘lsa-da, keyinchalik u kishilarning ma‘naviy-ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, eng muhimi tarbiyaviy jarayonlar uchun muhim omil bo‘lgan. Shu bilan birga, bu paytda qadimgi qo‘shiqchilik san‘atida professionalizm ko‘rinishlari shakllana bordi, uning mazmuni esa an‘anaviylik bilan boyidi. Ushbu hol O‘zbekistonning eng qadimgi davrlarida ham yuksak madaniyatga ega bo‘lgan qo‘shiqchilik san‘ati yaxshi rivojlangan, jamiyat tamaddunining muhim o‘zaklaridan biri bo‘lganligidan dalolat beradi. O‘zbek xalq qo‘shiqchiligi haqida fikr yuritganda, albatta, mustamlakachilik davridagi muammolarga to‘xtalish zarur. XIX asrning ikkinchi yarmidan

boshlangan Rossiya mustamlakachilik va uning madaniy merosimizga salbiy ta'siri ham ijod namunalarining bir qismini yo'qolib ketishiga sabab bo'ldi. Ammo shunga qaramay, milliy san'atimiz izchil rivojlanaverdi. Xususan, ijrochilikning Buxoro, Xorazm, Qo'qon yo'nalishlari saqlanib qoldi. Shuningdek, O'zbekistonning barcha hududlarida o'ziga xoslik mavjud bo'lishiga qaramasdan, o'zbek xalq musiqa madaniyati saqlanib qolindi. Barchamizga ma'lumki, toki shu kunga qadar qancha bosqinchilik, talon-taroj ishlari bo'lmasin, o'zbek xalq musiqa san'ati davr uchun, kishilar tarbiyasi uchun kerakligicha qoldi. Mustaqilligimiz tufayli tarixiy madaniyatimiz adabiyot va san'atimiz, tilimiz, dinimizga ega bo'ldik. Milliy qadriyatlarimiz qayta tiklandi. O'zbek xalqi milliy o'zligini anglashda faollikni egalladi. Demak, bizning oldimizda o'zbek xalq musiqa madaniyatini yosh avlod tarbiyalashda muhimligini anglagan holda, Vatanga bo'lgan muhabbat ruhida tarbiyalash vazifasi turibdi. O'zbek xalq qo'shiqchilik san'atining ildizlari juda qadimiydir. Tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar va arxeologik qazilma topilmalari shundan dalolat beradi. Eramizdan avvalgi IV asrda (qariyb 2400 yil muqaddam) Iskandar Zulqarnayn O'rta Osiyoni zabt etganida yunonlar ajdodlarimiz bo'lmish sug'diylar, baktriyaliklar va xorazmliklarning boy musiqa madaniyatidan hayratda qolganlar. Ularning mashshoq xonandalari ajdodlarimizning ajoyib va dilkash qo'shiqlari va kuylarini, hushnavo turli cholg'u asboblarini o'rganib, o'zlarining musiqa madaniyatlarini boyitganlar. Natijada ayrim cholg'u asboblarimiz Yevropa xalqlari amaliyotida qo'llanib, yangi ko'rinish (shakl) va nomlanishda tarqalgan (ud-motiya, dutor, gitara, arg'anun-arfa va boshqalar). Navro'z (bahorgi yangi yil bayrami), Mehrjon (hosil bayrami), Sada (yanvar-fevral oylarida bahorga o'tish bayrami) kabi ommaviy

bayramlar O'rta Osiyo xalqlarida qadimdan nishonlanib kelingan va ular kuy, qo'shiq, raqs hamda musiqiy o'yinlar ijro etish bilan o'tkazilgan. Ajdodlarimizning qadimgi zardushtiy (otashparastlik) diniy kitobi – "Avesto" yozuvlariga binoan xudolarga sig'inish bilan bog'liq bo'lgan turli marosimlarda ham qo'shiqlar kuylangan. Undagi qo'shiqlar got(madhiya)lar jo'r bo'lib kuylangan. VII asrda O'rta Osiyoga islom dinini olib kelgan arablar ham ajdodlarimiz, musiqa madaniyatidan bebahra qolmadilar. IX-X asrlarga kelib, Samoniylar davlatida Buxoro yuksak san'at va ilm-fan maskaniga aylandi. Bu davrda olamga mashhur olimlar, shoirlar, musiqachilar yetishib chiqdilar. Mashhur faylasuf al-Forobiy, Ahmad Farg'oniy, alloma Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Abdullo Rudakiy, Abdulqosim Firdavsiy va boshqalar o'rta asr sharq madaniyatiga katta hissa qo'shdilar. Ayniqsa, al-Forobiy va ibn Sino Sharq musiqashunosligi ravnaqiga ulkan hissa qo'shdilar. XI-XV asrlar davomida o'zbek xalq madaniyati yangi cho'qqilarga erishdi. Temuriylar davrida o'zbek musiqa madaniyati yuksak rivojlandi. Bunda Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zaxiriddin Muhammad Bobur kabi ulug' allomalarning xizmatlari alohida xurmatga sazovor. XVI-XIX asrlarda Samarqand, Buxoro, Qo'qon va Xorazm kabi ilm va ma'rifat maskanlarida musiqa san'ati keng rivojlandi. Xususan, Mavlono Kavkabiy, Buxoriy va Darvesh Ali Chang'iyarning musiqiy-nazariy risolalari shu paytda yozilgan, u musiqa san'atida katta ahamiyat kasb etgan. Bu davrda eng katta salobatli maqomlarimizdan "Shashmaqom" turkumi mukammal shaklga kirdi. Shuningdek, dostonchilik san'ati ham yuksak rivojlandi. Binobarin, o'zbek musiqasi ikki asosiy tarmoqda – xalq ommaviy janrlari (bolalar qo'shiqlari, alla, yalla, terma, lapar, qo'shiq, lirik va raqs kuylari)ga va og'zaki an'anadagi ustozona (professional) musiqa (ashula, katta ashula, doston, maqomlar) yo'nalishlarida qaror topib keldi. XIX asrning II yarmida Turkiston xonliklari Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinib boshlandi, natijada musiqa madaniyatimizga Rossiya orqali Yevropa musiqasi ta'siri jarayoni boshlandi. Sho'ro davrida musiqa

madaniyatimizda turli o'zgarishlar ro'y berdi, chunonchi maktab ta'limi va musiqa o'quv yurtlarida musiqani yevropacha (fan sifatida) o'rganish joriy etildi. Shuningdek, teatr, konsert muassasalari tashkil etildi. Kompozitorlik musiqa ijodiyoti uslubi vujudga keldi, natijada o'zbek kompozitorlari yetishib chiqdi. Ayniqsa, shu uslubda ijod etilgan bolalar musiqasiga e'tibor kuchaydi. O'zbek xalq musiqasining ommaviy qo'shiq va kuylari badiiy mazmuni va hayotiy o'rniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: Mavsum-marosim qo'shiqlari (marsiyalar, yo'qlovlar, yor-yorlar, to'y-hashamlarda, bayramlarda kuylanadigan qo'shiqlar). O'zbek xalq milliy san'ati xususan, musiqa o'zining serqirra va qadimiyligi bilan kishini o'ziga tortadi. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo'llari, shuningdek, folklor-havaskorlik yo'nalishi shaklan va usluban bir-biriga yaqin bo'lib, to'ldirib keldi. O'zbek xalq qo'shiqchiligiga nazar solsak, unda noyob milliy – ma'naviy qadryatlarimiz, milliy g'ururimiz, konstitusiyamiz, ona Vatanimiz madhi kuylanadi. Milliy musiqa – insonning qalb kechinmalarini mumtoz kuy-qo'shiqlar maqom san'ati, an'anaviy qo'shiq ijrochiligi xalq milliy yo'nalishimizni bayon etsa, zamonaviy musiqa milliy

estrada janri esa, lirik ohanglarni zamonaviy talqini orqali kuylanadi. Bizga ma'lumki, har ikki janrda ham bizning betakror san'atimizga dunyo uzra teng keladiganini topish qiyin. Vatandoshimiz buyuk allomalarimizdan Abu Nasr Forobiy Sharq musiqa ilmining asoschisi deb butun jahonda tan olingan. Abu Ali Ibn Sino Abdulqodir Marog'i, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Darvesh ali Changiy va boshqalar Sharqona jahonshumul ahamiyatga molik noyob nazariy va estetik qarashlarni ishlab chiqqan holda mumtoz musiqiy asarlarning ham muallifi sifatida keng tanilganlar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kholmuradovna R. U., Obidovna R. M. Social norms, sanctions and personality //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 115-118.
2. Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.
3. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501..
4. Ramazonova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram Desktop/Бехруз Болтаев (2).rtf2. – №. 1. – С. 336-339
5. Рамазонова У. Х., Эсанова М. Ж. Подготовка молодых певцов к ансамблевому выступлению //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1 (77). – С. 88-91.
6. Kholmurodovna U. R. Formation of publicistic performing skills in singing. – 2021.
7. Ramazonova U. H., Muhamadova M. The spiritual impact of traditional sound exercises on the minds of students. – 2022.
8. Ramazonova O. K., Shukurov M. Historical development of status. – 2022.
9. [ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАУКЕ ОБ ОСНОВАХ ТЕХНИКИ ПЕНИЯ.](#) Угилой Холмуродовна Рамазанова, Мафтуна Бахадировна Давронова. 2023/12/15 International conference on multidisciplinary science Том1Номер 6 Страницы 94-96
10. [ВНЕДРЕНИЕ И ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОЗНАНИИ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ.](#) Угилой

Холмуродовна Рамазанова, Малика Курбановна Нематова 2023/12/15 International conference on multidisciplinary science Том 1 Номер 6 Страницы 97-99

11. Behruz Boltayev Hamidovich INTERPRETATION OF THE METHODS OF BUKHARA SHASHMAKOM AND THE FUNDAMENTALS OF MAKOM. *Academia Science Repository*, 4(04), 1063–1066. Retrieved from <http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/90>

12. Behruz Boltayev Hamidovich. (2023). AL-FARABI AND IBN SINA'S CLASSIFICATION OF THE FOUNDATIONS OF THE THEORY OF "IYKUT" METHODS IN ORIENTAL MUSIC EDUCATION. *Academia Science Repository*, 4(04), 102–104. Retrieved from <http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/414>

13. Boltayev B. H. The content and methodology of the process of establishing the voice of students in singing //МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 179-188.

14. Boltayev B. H. Buxoroshashmaqomidoyrausullariijrolaritalqini //TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 67-74.

15. Boltayev B. H. O 'ZBEK MILLIY QO 'SHIQCHILIGINING QADR TOPISH XUSUSIYATLARI //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 312-318.

16. Samieva M. BUKHARA PERFORMANCE METHOD A FACTOR FOR DEVELOPING THE MORAL QUALITIES OF ADOLESCENT STUDENTS // "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – С. 191-194.

17. Samiyeva M. A., Ramazonov A. V. O 'ZBEK MUMTOZ MUSIQASI-O'QUVCHILAR QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH OMILI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 31-36.

18. Azimovna S. M. et al. THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS //Zeta Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 1067-1071.

19. Мустафоев Б. И., Самиева М. А. БУХАРСКИЕ ДРЕВНИЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ ГРУППЫ-СРЕДСТВО ОБРАЗОВАНИЯ //European Science. – 2021. – №. 2. – С. 26-28.

20. Ortiqov, E. . (2023). Musiqa Madaniyati Ta'limida Musiqiy Savodxonlik Faoliyatini Tutgan O'рни. *International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses*, 106–112. Retrieved from <https://conferenceseries.info/index.php/ICMRITA/article/view/835>

21. [Взгляды восточных мыслителей на узбекскую народную музыку](#). УХ Рамазанова - Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 2023

22. [O'ZBEK MUMTOZ MUSIQASIDA SHASHMAQOMNING O'RNINI VA ANAMIYATI](#)

О Farangiz - ТА'ЛИМ ВА RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY ..., 2022

23. [Важность использования инновационных технологий в науке об основах техники пения](#). Угиллой Холмуродовна Рамазанова, Мафтуна Бахадировна Давронова 2023/12/15 International conference on multidisciplinary science 1 694-96

24. [Внедрение и применение инновационных технологий в сознании студентов в образовательном процессе](#). УХ Рамазанова, МК Нематова - International conference on multidisciplinary science, 2023

25. [Преподавание ответвлений шашмакома на уроках традиционного пения как педагогическая проблема.](#) УХ Рамазанова, МД Эсанова - International conference on multidisciplinary science, 2023

26. Ражабов Тухтасин Ибодович, Ибодов Уктам Расулович ОБЕСПЕЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ В ОБУЧЕНИИ ПЕСНЯМ БУХАРСКОГО ДЕТСКОГО ФОЛЬКЛОРА НА УРОКАХ МУЗЫКИ // Вестник науки и образования. 2020. №21-2 (99). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obespechenie-natsionalnogo-naslediya-v-obuchenii-pesnyam-buharskogo-detskogo-folklor-na-urokah-muzyki> (дата обращения: 26.10.2023).

27. Rajabov T. I., Ibodov O. R. O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi // IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – T. 1. – №. 6. – С. 139-145.

28. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) // Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.

29. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) // Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.

30. БОЛТАЕВ Б. Х. ПРОБЛЕМЫ НАУКИ // ПРОБЛЕМЫ НАУКИ Учредители: Олимп. – №. 4. – С. 98-100.

31. Hamitova S. B., Gulzira N. AN'ANAVIY XONANDALIKNI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI // International conference on multidisciplinary science. – 2024. – T. 2. – №. 5. – С. 114-117.

32. Qo'chqorova U. D., Hamitova S. B. MAQOM SAN'ATINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI ORNI // International conference on multidisciplinary science. – 2024. – T. 2. – №. 5. – С. 105-109.

33. Hamitova S. B. AN'ANAVIY XONANDALIK VA UNING RIVOJLANISH TARIXI // International conference on multidisciplinary science. – 2024. – T. 2. – №. 5. – С. 110-113.